

O'QUVCHILAR O'QUV FAOLIYATI NATIJALARINI BAHOLASHGA OID YONDASHUV VA MEXANIZMLAR

Raxmatullayeva Charos Sherzod qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent Milliy pedagogika universiteti

Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi 2-bosqich magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18085276>

Annotatsiya. Maqolada o'quvchilar o'quv faoliyati natijalarini baholashning zamonaviy yondashuvlari va samarali mexanizmlari tahlil qilinadi. Baholashning ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni, subyektivlikni kamaytirish yo'llari va mezonli baholash tizimining afzalliklari yoritilgan.

Shuningdek, baholash jarayonining o'quvchi motivatsiyasiga ta'siri hamda raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: baholash, ta'lim natijalari, mezonli baholash, formativ baholash, autentik yondashuv, pedagogik mahorat, ta'lim sifati, baholash mexanizmlari, subyektivlik.

Annotation. The article analyzes modern approaches and effective mechanisms for assessing student learning outcomes. It highlights the role of assessment in improving the quality of education, ways to reduce subjectivity, and the advantages of the criteria-based assessment system. The impact of the assessment process on student motivation and the possibilities of using digital technologies are also considered.

Keywords: assessment, learning outcomes, criteria-based assessment, formative assessment, summative assessment, pedagogical skill, quality of education, assessment mechanisms, subjectivity.

Аннотация. В статье анализируются современные подходы и эффективные механизмы оценки результатов учебной деятельности учащихся. Освещается роль оценивания в повышении качества образования, пути снижения субъективности и преимущества критериальной системы оценивания. Также рассматриваются влияние процесса оценивания на мотивацию учащихся и возможности использования цифровых технологий.

Ключевые слова: оценивание, образовательные результаты, критериальное оценивание, формативное оценивание, суммативное оценивание, педагогическое мастерство, качество образования, механизмы оценивания, субъективность.

Maktab ta'limida baholash tizimi tarixan jamiyat taraqqiyoti, davlat siyosati va pedagogik g'oyalarning rivojlanishiga bevosita bog'liq holda shakllangan bo'lib, uning istiqbolini anglash uchun tarixiy taraqqiyotini qadimgi manbaalardan boshlab, XXI asr zamonaviy davr hamda kelajakdagi tendensiyalari kontekstida o'rganish zarur.

Jamiyat maktab va o'qituvchilardan samaradorlikni isbotlashni talab qilgani sababli, ko'p hollarda yuqori stavkali standart testlar ta'lim maqsadlarini belgilovchi asosiy mezonga aylandi.

Resnick [1] buni "o'lchov orqali boshqariladigan islohot" deb atagan. 1967-yilda Scriven baholash falsafasini ishlab chiqdi.

U formativ (jarayon davomida tuzatishga xizmat qiluvchi) va summativ (yakuniy natijani o'lchovchi) baholashni farqladi. [2] Tyler, R. M. Gagne and M. Scriven Bloom va boshqalar [3] formativ baholashni ta'lim jarayonida qo'llashni targ'ib qildilar.

Keyinchalik Sadler va UK Assessment Reform Group kengaytirib, sinfda kundalik muloqot, savol-javob va fikr-mulohazalar orqali amalga oshiriladigan baholash sifatida talqin qildilar. Bu yondashuv “o‘qish uchun baholash” tamoyiliga asoslandi. 20-asr oxiridan boshlab, baholashning ijtimoiy tengsizlikka ta’siri ham muhokama qilina boshlandi. An’anaviy ta’lim tizimida baholash uzoq vaqt davomida faqat nazorat va saralash funksiyasini bajarib keldi. Biroq zamonaviy pedagogik yondashuvlar baholashning diagnostik va motivatsion jihatlariga ustuvorlik bermoqda. O‘quvchi faoliyatini baholashda uning shaxsiy o‘shish dinamikasini hisobga olish, o‘z-o‘zini baholash (self-assessment) va tengdoshlarini baholash (peer-assessment) kabi mexanizmlarni joriy etish ta’lim oluvchining mas’uliyatini oshirishga xizmat qiladi. Baholash mexanizmlarining samaradorligi ko‘p jihatdan pedagogning kasbiy mahoratiga va baholash mezonlarining shaffofligiga bog‘liqdir. Agarda baholash jarayonida aniq mezonlar va standartlar mavjud bo‘lmasa, bu pedagogik jarayonda subyektivlikning ortishiga va o‘quvchilarning ta’limga bo‘lgan qiziqishi susayishiga olib keladi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Gleason va Dynarski tadqiqotlari o‘quvchilarning boshlang‘ich sinflardagi baholaridan kelajakda maktabni tugatish yoki tark etish xavfini oldindan aniqlashga e’tibor qaratgan [4] Ilk tadqiqotlarda o‘qituvchi baholari maktabni tugatmaslik xavfining eng kuchli prognozchilari sifatida topilgan. Keyingi izlanishlarda boshqa omillar (masalan, dars qoldirish yoki intizomsizlik) ham qo‘shilgan, biroq baho asosiy prediktorligicha qolgan So‘nggi Alexander, Entwisle & Kabbanining tadqiqotlari hayotiy yo‘l (life course) yondashuvini qo‘llab, past yoki qoniqarsiz baholarning o‘quvchi o‘qish faoliyati davomida kumulyativ ta’sir ko‘rsatishini va oxir-oqibat maktabni tark etish qaroriga olib kelishini ko‘rsatdi. [5] XX asrning o‘rtalaridan boshlab o‘qituvchilarning baholash amaliyotlari va ularning bu tizimdagi qarashlari bo‘yicha tadqiqotlar olib borila boshlangan. Unga ko‘ra, o‘qituvchilar test natijalaridan foydalanib, adolatli baholash, no-kognitiv omillar, ya’ni o‘quvchining sa’y-harakati, intizomi, topshiriqlarni bajarishini ham bahoga qo‘shish, baholashga oid o‘z qadriyatlariga ega bo‘lish, har bir bosqichda alohida baholash usullaridan foydalanish kabi ishlarni amalga tatbiq qilishi kerak.

O‘quvchilar o‘quv faoliyati natijalarini baholashning muhim yondashuvlaridan biri – standartga asoslangan baholash hisoblanadi. Standartga asoslangan baholash yondashuvi o‘quvchi yutuqlarini aniq standartlarga nisbatan ko‘rsatishga qaratilgan (masalan, “oddiy”, “asosiy”, “qoniqarli”, “yuqori darajada”). Unda ish odatlari va xulq alohida qayd etiladi Biroq standartga asoslangan baholashni amaliyotga joriy etishda ko‘plab qiyinchiliklar kuzatilgan.

Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, o‘qituvchilar bunday islohotlarni qo‘llab-quvvatlasalar ham, baribir baholashda motivatsiya, sa’y-harakat va qat’iyatni aralashtirib yuboradilar [6]

Shuningdek, standartga asoslangan baholashni qo‘llashda umumiy testlardan foydalanish, kechikkan ishlarni qabul qilish, qayta topshirishga ruxsat berish masalalarida o‘qituvchilar o‘rtasida tafovut mavjud. Swan, Guskey va Jung tadqiqotlarida ota-onalar, o‘qituvchilar va o‘quvchilar an’anaviy hisobot varaqalariga nisbatan standartga asoslangan baholashni afzal ko‘rishgani aniqlangan. Ayniqsa, standartga asoslangan baholashni joriy etishni o‘ylayotgan o‘qituvchilar eng ijobiy munosabat bildirgan. Uni qo‘llagan o‘qituvchilar hisobotlarni to‘ldirish ko‘proq vaqt talab qilishini ta’kidlagan bo‘lsalar-da, qo‘shimcha mehnat o‘zini oqlashini aytishgan, chunki standartga asoslangan baholash yuqori sifatli ma’lumot bergan.

Biroq, Guskeyning avvalgi kuzatuvlarida ota-onalar ko‘pincha barcha yorliqlarni (masalan, “asosiy darajadan past”, “asosiy”, “qoniqarli”, “yuqori”) harflar bilan ifodalanuvchi baholar sifatida talqin qilgan. Ammo oradan bir necha yil o‘tib, standartga asoslangan baholash tizimiga ko‘nikish vaqti ortgani sayin bu tushunchaga bo‘lgan qarashlar ijobiy tomonga o‘zgargan bo‘lishi mumkin. [7] O‘quvchilarning o‘quv faoliyati natijalarini baholashda kompetensiyaga asoslangan yondashuv zamonaviy pedagogikaning markaziy paradigmasi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu yondashuv an‘anaviy “bilimni o‘zlashtirish darajasi”ga qaratilgan baholashdan tubdan farq qilib, o‘quvchining bilim, ko‘nikma va malakalarini real hayotiy vaziyatlarda qo‘llash qobiliyatini aniqlashga yo‘naltiriladi. Shunday qilib, baholash jarayonida natija emas, balki o‘quvchining kompetensiyasi – ya’ni, uning bilimni integratsiyalash, yangi sharoitlarda ijodiy tatbiq etish, mustaqil qaror qabul qilish va muammolarni hal qilish layoqati asosiy mezon sifatida ko‘riladi.

Pedagogik lug‘atda bu jarayon ko‘pincha “assessment for learning” (o‘qish uchun baholash), “performance-based assessment” (faoliyatga asoslangan baholash) va “authentic assessment” (haqiqiy/amaliy baholash) kabi tushunchalar bilan izohlanadi. Mazkur kategoriyalar o‘quvchining o‘quv jarayonidagi faolligi, refleksiyasi va ijodkorlik salohiyatini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Shuningdek, kompetensiyaga asoslangan yondashuv baholashning faqat summativ (yakuniy) shakliga tayanib qolmasdan, balki formativ baholash (jarayon davomida kuzatish va tahlil qilish), diagnostik baholash (boshlang‘ich imkoniyatlarni aniqlash) va metakognitiv baholash (o‘quvchining o‘z-o‘zini tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish) kabi ko‘rinishlarini ham o‘z ichiga oladi.

Bunday yondashuvda o‘quvchining muvaffaqiyati “qanchalik ko‘p faktlarni bilishi” bilan emas, balki “o‘rganganlarini qanday qo‘llashi, yangi vaziyatda qanday fikrlashi va hamkorlik qilishi” bilan belgilanadi. Shu bois, kompetensiyaga asoslangan baholashning asosiy tamoyillari sifatida moslashuvchanlik, shaxsiylashtirish, jarayonga yo‘naltirilganlik va tenglik tushunchalari ajralib turadi. Natijada, o‘quvchilarning o‘quv faoliyati natijalarini baholashning kompetensiyaga asoslangan yondashuvi ularning ijtimoiy-madaniy kontekstdagi faoliyatga tayyorligi, kasbiy o‘rishga layoqati hamda umr bo‘yi ta’lim olish salohiyatini rivojlantirishda poydevor vazifasini bajaradi. [8]

Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning o‘quv faoliyati natijalarini baholashda **autentik yondashuv** an‘anaviy test va nazorat shakllaridan farqli o‘laroq, bilimlarni real hayotiy kontekstda qo‘llashni markazga qo‘yadi. Autentik baholash – bu o‘quvchilardan muhim bilim va ko‘nikmalarni real hayotiy vazifalar orqali qo‘llashni talab qiladigan baholash shaklidir.

Ushbu yondashuvda baholash nafaqat o‘quvchining faktlarni eslab qolish yoki qayta aytish qobiliyatini, balki ularni mazmunli faoliyatda integratsiyalash, amaliyotga tatbiq etish va ijodiy qo‘llash darajasini ham aniqlashga xizmat qiladi. Autentik baholash nazariy asosini konstruktivistik ta’lim paradigmasi tashkil etadi. Bu yondashuvga ko‘ra, bilim shaxs tomonidan tashqi axborot va individual tajriba asosida faol ravishda quriladi. Shuning uchun ham baholash jarayoni o‘quvchilarni mustaqil mantiqiy xulosalar chiqarishga, muammolarni yechishga, qarorlar ishlab chiqishga va ijtimoiy-madaniy kontekstda o‘z faoliyatini asoslashga yo‘naltirilishi zarur.

Demak, autentik baholash yondashuvi o‘quvchining ta’limiy yutuqlarini ko‘p qirrali, jarayon va natijaga yo‘naltirilgan, real hayot bilan uzviy bog‘langan tarzda baholash imkonini beradi.

Bu esa ta'lim samaradorligini oshirish, o'quvchilarni faollashtirish hamda ularning ijodkorlik va tanqidiy tafakkurini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. [9].

O'quvchilarning faoliyatini baholashda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv chuqur tushunish va o'quvchining o'rganish jarayoniga e'tibor qaratadi. Bu an'anaviy test va faqatgina natijaga asoslangan baholashdan tubdan farq qiladi. Bu yondashuv, o'quvchining shaxsiy bilim salohiyati, o'rganish uslublari va kognitiv rivojlanishiga asoslanadi. Bu yondashuv baholashning ta'lim madaniyatidagi rolini qayta ko'rib chiqishga chorlaydi. U o'qituvchilarni bilimni faqat uzatuvchi shaxs emas, balki o'quvchining o'rganishiga yordam beradigan mentor sifatida ko'radi. [10]

Hozirgi kunda ta'lim tizimida qo'llanayotgan formativ va summativ baholash shakllari ham sezilarli natija berib kelmoqda. Formativ baholash zamonaviy ta'lim jarayonida o'qitish va o'rganishni integrativ tarzda bog'laydigan muhim mexanizmdir. U an'anaviy nazoratga asoslangan baholashdan farqli o'laroq, jarayon davomida muntazam axborot yig'ish va uni qayta ishlash orqali o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotlarda qayd etilishicha, formativ baholash nafaqat kognitiv rivojlanishni, balki o'quvchilarning affektiv sohadagi o'z-o'zini tartibga solish qobiliyati va ichki motivatsiyasini ham qo'llab-quvvatlaydi. O'qituvchilarning ushbu yondashuvni samarali joriy etishi ularning kasbiy tayyorgarligi, reflektiv kompetensiyasi va metodik moslashuvchanligiga bevosita bog'liqdir.

O'quvchilar o'quv faoliyati natijalarini baholash tizimi bugungi kunda shunchaki nazorat vositasi emas, balki ta'lim sifatini boshqaruvchi va uni istiqbolli rivojlantiruvchi eng muhim strategik mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda. Baholash mexanizmlari orasida formativ (shakllantiruvchi) baholashning ahamiyati alohida e'tirofga loyiq. Ushbu yondashuv o'quv faoliyati natijalarini jarayonning oxirida emas, balki uning har bir bosqichida tahlil qilish imkonini beradi. Bu o'qituvchiga dars o'tish metodikasini o'quvchilarning o'zlashtirish sur'atiga qarab moslashtirishga, o'quvchiga esa o'z ustida ishlash uchun muntazam va konstruktiv qayta aloqa olishga yo'l ochadi. Summativ (yakuniy) baholash esa o'rganilgan material bo'yicha kompetensiyalarning shakllanganlik darajasini xolisona sarhisol qiluvchi vosita bo'lib qoladi.

Ushbu ikki mexanizmning o'zaro uyg'unligi ta'limda natijadorlikni yangi bosqichga olib chiqadi. Shu bilan birga, baholash jarayonini modernizatsiya qilishda raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirilgan tahlil tizimlarining o'rni beqiyosdir. Elektron kundaliklar va test platformalari baholash jarayonini statistik ma'lumotlar bilan boyitib, ta'lim natijalarini dinamik tarzda kuzatish va kelajakdagi natijalarni bashorat qilish imkonini yaratmoqda.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilar o'quv faoliyati natijalarini baholash tizimini aksiologik yondashuvlar negizida qayta ko'rib chiqish, ya'ni bahoni jazo vositasi emas, balki rivojlanish vositasi sifatida talqin qilish bugungi kunning asosiy vazifasidir. Baholash mexanizmlari qanchalik adolatli, tushunarli va rag'batlantiruvchi xarakterga ega bo'lsa, o'quvchining o'quv motivatsiyasi va mas'uliyati shunchalik yuqori bo'ladi. Shuningdek, baholash tizimidagi islohotlar o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat, tahliliy tafakkur va xolislikni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Resnick, L. B., and Resnick, D. P. (1989) Assessing the Thinking Curriculum: New Tools for Educational Reform. Washington, DC: National Commission on Testing and Public Policy. 1989

2. The methodology of evaluation,” in Perspectives of Curriculum Evaluation. eds. R. W. 1967
3. Bloom, B. S. (1976). Human Characteristics and School Learning. New York: McGraw-Hill.1971
4. Gleason, P., & Dynarski, M. (2002). Do we know whom to serve? Issues in using risk factors to identify dropouts. Journal of Education for Students Placed at Risk, 7, 25–41
5. Alexander, K. L., Entwisle, D. R., & Kabbani, N. S. (2001). The dropout process in life course perspective: Early risk factors at home and school. The Teachers College Record, 103, 760–822.
6. Cox, K. B. (2011). Putting classroom grading on the table, a reform in progress. American Secondary Education, 40(1), 67–87.
7. Guskey, T. R., Swan, G. M. & Jung, L. A. (2010, April). Developing a statewide, standards-based student report card: A review of the Kentucky initiative. Paper presented at the Annual Meeting of the American Educational Research Association, Denver, CO.
8. Carla. M. Evans Competency-Based Education: Educational Reform. A Primer Policy Brief 18-01 April 2018)
9. Jon Mueller The Authentic Assessment Toolbox: Enhancing Student Learning through Online Faculty Development 2005
10. Lorrie A Shepard. The role of assesstment in a learning culture. Vol.29. No. 7 Educational researcher